

“SHAXS” LINGVISTIK ZARRASINING LEKSIK SATHDA
ASSOTSIATIV VOQELANISHI
(pragmatik aspekt)

Umidjon Yigitaliyev, Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining leksik sathida “shaxs” lingvistik zarrasining assotsiativ-pragmatik ifodalanishi lug‘aviy birliklar vositasida tadqiq etiladi.

Annotation: This article explores the associative-pragmatic expression of the language atom "man" at the lexical level of the Uzbek language through lexical units.

Tayaynch so‘z va iboralar: lingvistik sath, lug‘aviy sath, assotsiativ munosabat, pragmatika, shaxs tushunchasi, ma’no ko‘chish.

Key words and phrases: linguistic level, lexical level, associative connection, pragmatics, concept of personality, meaning transfer.

Bugungi kunda jahon tilshunosligida tilda “shaxs” omilining o‘rni masalasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan¹. Mazkur ishlarda *inson* tushunchasining barcha fanlar, shu jumladan, tilshunoslikning ham o‘rganish predmeti ekanligi g‘oyasi ilgari surildi. SHuningdek, turli tillarda “odam” yoki “shaxs” kontseptining ifodalanishi, xususan, shaxsning baho sifatlarini ifodalovchi maqollar, zoonimik va fitonimik leksik birliklar orqali voqelanishi masalasini o‘rganish bo‘yicha izlanishlar olib borildi².

Anglashiladiki, tilda “inson” omili muammosi tadqiqtichidan tildan foydalanuvchi *shaxs*ga xos xususiyatlarning tilda voqelanishini aniqlashdek murakkab vazifalarni o‘rganishni taqozo etadi. Negaki tilshunoslikda *shaxs* tushunchasi, birinchidan, ijtimoiy taraqqiyotning natijasi sifatida qaralib, kishining *kasbiy*, *ijtimoiy*, *jinsiy*, *yosh*, *irqiy*, *etnik*, *diniy*, *huquqiy* va boshqa munosabatlari natijasida ro‘yobga chiqadi.

Fanimizda inson omili muammosini assotsiativ-pragmatik tadqiq etishda *assotsiatning* til vositalari orqali ifodalanishi masalasini o‘rganish muhim o‘rin tutadi. Zeroiki, **assotsiat** (*stimul so‘z –U.Y.*) antropotsentrik paradigma (assotsiativ

¹ Yigitaliyev U.S. O‘zbek tilida “odam” va “jins” konseptlari bilan bog’liq assotsiativ-verbal birliklar. –Falsafa dokt. diss. –T.: Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU, 2020. –B. 65.

² Yigitaliyev U.S. Ko‘rsatilgan diss. –B. 72.

tilshunoslik)ning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, hozirgi zamon tilshunosligida assotsiatning ifodalanishi xususida deyarli fikrlar bir xil³.

Hozirgi kunda o'zbek tilshunosligida leksemalar guruhida "shaxs" tushunchasi xususida ayrim fikrlar bayon qilinayotgan bo'lishiga qaramay, "shaxs" lingvistik zarrasi o'zining to'liq lisoniy-falsafiy hamda assotsiativ-pragmatik tavsifiga ega bo'lganicha yo'q.

Leksik sathda "shaxs" lisoniy zarrasining voqelanishi leksema va frazemalarda keng tarqalgan. SHuningdek, leksik birliklarning ma'no ko'chishi hodisasida ham mazkur lisoniy zarra (*LZ*-qisq.- U.Y.)ning reallashuvini kuzatish mumkin.

O'zbek tilida *ota, ona, qiz, o'g'il, aka, opa, uka, singil* kabi qarindoshlikni bildiruvchi shaxs otlari, ilmiy faoliyat va ilmiy unvon egalarini bildiruvchi *aspirant, doktorant, dotsent, professor* leksemalari; kishilarning yashash joyini ifodalovchi *uy, qasr, koshona* leksemalari; insonga nisbat beriluvchi *esli, dono, aqli, ahmoq, qo'rmas, jasur, landavur, kamtar, sofdil, mag'rur, uyatchan, tortinchoq, ishbilarmon, mohir, ziyrak, bilimdon, chidamlı, xotamtoy, sahovatli* leksemalari *inson (odam)* semasiga ega bo'lib, til egalari xotirasida bevosita "shaxs" LZsini assotsiativ-pragmatik jihatdan tiklay oladi.

Bu xususiyat inson hatti-harakatlari, turli holatlarini anglatuvchi *tinglamoq, gapirmoq, urishmoq, hidlamoq, mizg'imoq, tanovul qilmoq, betob bo'lmoq, farzand ko'rmoq, kiyinmoq, echinmoq, achchiqlanmoq, ranjimoq, keksaymoq* leksemalari; *men, sen, u, biz, siz, ular, hamma, barcha, allakim, hech kim, kimdir* kabi ishora birliklariga ham xos. Demak, *odam* semasi bilan bog'langan har qanday leksik birlik assotsiativ tarzda til egalari xotirasida "shaxs" LZini voqelantira oladi.

Bundan tashqari, o'zbek tilida "shaxs" LZining leksik birliklarning semantik sathida hosila ma'noning yuzaga kelishi natijasida ham assotsiativ tarzda voqelanishi kuzatiladi. Masalan, M.Mirtojiyev tomonidan keltirilgan quyidagi

³ Lutfullayeva D.E. Assotsiativ tilshnoslik nazariyasi.–Toshkent:MERIYUS, 2017.–140 b.

izohga e'tibor qarataylik: “*Ulamoq* fe'li “uchlarini”, “biriktirib”, “bog‘lamoq” leksik ma'nosi – sememasiga ega. U yana «uchiga», “qo‘sib”, “uzaytirmoq” hosila ma'no – sememani orttirgan. Ular bildirgan harakat o‘rtasida o‘xhashlik bor. YA’ni hosila ma'no yuzaga kelishi metafora hisoblanadi”⁴ [9,95]. Mazkur holatda hosil qiluvchi sememaning ham, hosila sememaning ham uchtadan semasi bor. Ular izohdagi bittadan so‘zda ifoda topgan: hosil qiluvchi semema semalari “uchlarini”, “biriktirib”, “bog‘lamoq” bo‘lsa, hosila semema semalari “uchlarini”, “qo‘sib”, “uzaytirmoq” dan iborat. Ulardagi (hosil qiluvchi va hosila sememalardagi) birinchi semalar umumiy, ikkinchilari o‘xhash, uchinchilari farqlidir. Hosil qiluvchi va hosila sememalarning ikkinchi semalari referentlarining o‘xhash ekanligini qayd etadi.

Umuman olganda, fanimizda ma'no ko‘chishning faol usullaridan biri bo‘lgan metaforaning kognitiv faoliyatga xos hodisa ekanligi tilshunoslar tomonidan dalillangan. CHunonchi, jahon tilshunosligida metaforaning antropologik qiymatini bosh mezon sifatida tadqiq etgan nazariyotchi tilshunoslar N.D.Arutyunova, E.V.Budayev, N.S.Valgina, J.Lakoff, M.Jonsonlarni misol qilib keltirib o‘tish mumkin⁵. O‘zbek tilshunosligida esa G.Qobuljonova, N.Mahmudov va D.Xudoyberanova valar tadqiqotlarida metafora antropotsentrik aspektda o‘rganildi⁶

Metaforaga yaqin turuvchi ma'no ko‘chishning faol usullaridan biri metonimiya ham o‘ziga xos kognitiv faoliyat mahsuli bo‘lishi mumkinligi quyidagi holatlar orqali ko‘zga tashlanadi. Metonimik munosabatlarda «odam» kontseptining ifodalaniishi ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi: umumlashgan leksik ma’noga asoslangan metonimiya va xususiy leksik ma’noga asoslangan metonimiya. Tilshunoslikda qayd etilishicha, metonimiya hosila ma'no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlari o‘zaro aloqador bo‘lishiga asoslangan ko‘rinishidir.

⁴ Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – T.: MUMTOZ SO‘Z. 2010. – 288 b.

⁵ <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/651/615>

⁶ Xudoyberanova D. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: Filol.fan. d-ri. ...diss. avtoref. – Toshkent: O‘zR FA TAI, 2015. – B.26.

Umumlashgan leksik ma'noga asoslangan metonimiya lug'aviy birlik sifatida so'z tarkibida aks etuvchi leksik ma'noga asoslanib sodir bo'luvchi metonimiyadir⁷. Ularda hosil qiluvchi va hosila ma'nolar bir-biridan farqli sema bilan o'zaro tutashib turadi. Fe'l turkumiga oid «adashmoq» so'zining yo'lini yo'qotmoq, sifat turkumiga oid "ziyrak" so'zining tez fahmlovchi leksik ma'nolari bo'lib, ular umumlashgan xarakterdadir. Nutqda *adashmoq* fe'lining "daydimoq", *ziyrak* sifatining "zehnli" metonimik hosila ma'nosi yuzaga keladi. Bular umumlashgan leksik ma'noga asoslangan. YA'ni: *Vodiylarda yolg'iz adashdim* (Hamid Olimjon). *Ziyrak, a'lochi, mакtabida u o'rnak* (P.Mo'min).

E'tibor berilsa, mazkur matnlar orqali nutq egasi xotirasida assotsiativ-pragmatik tarzda "shaxs" lisoniy zarrasi jonlanadi. Xuddi, shunday, so'zlashuv nutqida insonga nisbatan qo'llanuvchi *kalta soch, jinsi, sariq ko'yak* kabi metonimik qo'llanishlar orqali ham assotsiativ tarzda "shaxs" LZi voqelanadi. Masalan: *Orqada turgan kalta soch navbat kutmay oldinga o'tib ketdi*.

Tilda metonimiya atoqli otlarning turdosh otlarga o'tishi natijasida ham yuz beradi. Masalan: *Adam bergen xitoydan yasadim varrak* (Q.Hikmat). Bu misoldagi *xitoy* so'zi assotsiativ tarzda *yupqa qog'ozni* yodga tushiradi. Demak, metonimik ko'chimlar ham assotsiativ tarzda hosila ma'noni xotirada jonlantiradi.

Tilda ma'no ko'chishining metafora va metonimiyadan boshqa usullari, xususan, sinekdoxa orqali ham "odam" kontsepti ifodalanishi kuzatiladi. Bu o'rinda tilshunoslikda sinekdoxani tasnif qilishdagi nuqtai nazarlarni e'tiborga olish lozim. YA'ni so'zning leksik ma'nosi butun referentni ifodalaydimi yoki bo'lak referentnimi? Bu jihatdan sinekdoxaning quyidagi turlari farqlanadi: 1) bo'lak nomidagi sinekdoxa, 2) butun nomidagi sinekdoxa. Masalan, *Faryod qildim, zahar ichirding: ko'rsatmading tirnoq zotini!* (D.Fayziy) gapida *tirnoq* so'zi «farzand» hosila ma'nosi bilan voqelangan. Bu so'zning hosil qiluvchi ma'nosi «barmoq uchidagi muguz»ni ifoda etadi. Bu o'rindagi ma'no taraqqiyoti bo'lak nomidagi sinekdoxa deb yuritiladi.

⁷ Mirtojiyev M. Ko'rsatilgan asar. –B. 101.

Usta Olim oshga sabzi bosish bilan ovora edi (A.Qodiriy) gapidagi *osh so‘zi* «palov» hosila ma’nosida voqelangan. Ushbu so‘zning hosil qiluvchi ma’nosi «umuman issiq ovqat»ni bildirar edi. Bu o‘rinda butun nomi bilan bo‘lak atalgan.

“SHaxs” LZining sinekdoxa orqali voqelanishi quyidagi fe’l-leksemaning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi orqali kuzatiladi: *Sevishganlar qo‘li bilan bir-biriga chirmashdi* (SHuhrat).

Bu gapdagi *chirmashmoq* fe’li “yopishmoq” hosila ma’nosida kelib, bevosita “shaxs” LZini xotirada tiklaydi. Aslida bu fe’lning hosil qiluvchi ma’nosi “o‘ralishmoq” ifodasini beradi. *CHirmashmoq* so‘zidagi hosila ma’noning yuzaga kelishi butun nomidagi sinekdoxaga mansubdir. Albatta, bu o‘rinda sintaktik qurilma ham “*odam*” kontseptining assotsiativ-pragmatik tarzda reallashuvida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek tilida *otlanmoq* fe’li avval “otga minmoq”, *yyechmoq* fe’li “tugundan holi qilmoq” genetik ma’nosiga ega bo‘lgan. Davr o‘tishi bilan *otlanmoq* fe’li “biror joyga borish”, *yechmoq* fe’li “tugmani yoriqdan chiqarmoq” ma’nosini anglatadigan bo‘lgan⁸. Bizning nazarimizda, har ikki holatda ham funktsionimik ko‘chimlar orqali til egalari xotirasida “shaxs” lisoniy zarrasi tiklanadi. Ushbu fe’llarda aks etgan harakatning inson bilan bog‘liq holda amalga oshishi ular orqali inson xotirasida “shaxs” LZining assotsiativ-pragmatik voqelanishiga turtki beradi.

Aytiganlar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, o‘zbek tilida “shaxs” *lisoniy zarrasining assotsiativ tarzda voqelanishida odam* semasiga ega leksik birliklar, metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi ko‘chimlarga uchragan leksemalar muhim o‘rin tutadi. Bu birliklar til egalari xotirasida “shaxs” LZini yodga solishiga ko‘ra umumiylig xususiyatiga ega bo‘ladi.

⁸ <https://doi.org/10.5281/zenodo.7215024>